


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 2 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 2



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-2>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

1. **Djumanova Dilbar Raximovna, Bakiyeva Gulandom Xisomovna, Yuvasheva Shoiraxamamadovna**
MAQOLLARNING GENDERLIK: RUS VA INGLIZ TILLARIDA OILAVIY MUNOSABATLAR SEMANTIKASI.....6
2. **Xajiyeva Difuza Adambayevna**
HAMID OLIMJON SHE'RIYATIDA TABIAT TASVIRI: BAHOR, TOG' VA TUN POETIK SEMANTIKASI.....12
3. **Эргашева Дилфуза Камиловна**
ЦЕННОСТНЫЕ ТРАНСФОРМАЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ РУССКОЙ ЖЕНСКОЙ ПРОЗЕ.....17
4. **Grigoryeva Mariya Vitalyevna**
RUS VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA XRONOTOP (FAZOVIY KONFIGURATSIYA) NING BADIY VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....21

TARIX

1. **Abdullayeva Laylo**
O'RTA SINFNING SHAKLLANISHI VA UNING TARIXIY-NAZARIY ASOSLARI.....25
2. **SHeripov Umarbek Atajanovich**
MARKAZIY OSIYODA SUV XAVFSIZLIGI MUAMMOSI VA SIBIR DARYOLARINI BURISH LOYIHASI: TARIXIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY GEOSIYOSIY TAHLIL.....30
3. **Kamolova Habiba Muhammadiyevna**
AMIR TEMUR VA SHAHRISABZ: TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY TARAQQIYOT....34
4. **Allaberganov Ollabergan Arslanbekovich**
1945–1956-YILLARDA XORAZM VILOYATIDA PENSIYA TA'MINOTI (YUTUQ, KAMCHILIK VA TAFOVUTLAR).....38
5. **Matyakubova Shaxodat Xamidjanovna**
V–XI ASRLARDA JANUBIY OROLBO'YI HUDUDIDA AHOLI TURAR-JOYLARINING MADANIY-XO'JALIK RIVOJI VA IQTISODIY-ETNOMADANIY MUNOSABATLAR (XORAZM ARXEOLGIK TADQIQOTLARI ASOSIDA).....43
6. **Jumaniyazova Intizor To'likinova**
MAMLUKATIMIZDA DINIY TA'LIM VA UNING HUQUQIY ASOSLARI.....48
7. **Alimova G'unchaxon Baxodirovna**
ARAB MUHAMMADXON VA UNING AVLODLARI DAVRIDA XIVA XONLIGINING MUSTAHKAMLANISHI.....52
8. **Г.А. Дадамирзаева**
ЎЗБЕКИСТОНДА ХУНАРМАНДЧИЛИК КООПЕРАЦИЯСИНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҚУРИЛИШ ЖАРАЁНИНИНГ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ.....56
9. **Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li**
TA'LIM TIZIMIGA KOMMUNISTIK G'OYALAR TATBIQI VA UNING IJTIMOIIY OQIBATLARI.....63
10. **Matkarimova Intizor Atabayevna**
AHOLINI RO'YXATGA OLIHNING JAHON TAJRIBASI.....69

FALSAFA

1. **Nurmatov Jaxangir Yeshbayevich, Turobov Bekpulat Nusratullayevich**
E.E.BERTELS ASARLARIDA NAVOIY MA'NAVIIY MEROSI TAHLILI.....76
2. **Bozorov Mustafu Jabborovich**
MIGRATSIYA JARAYONINING GENEZISI: IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL.....82

Allaberganov Ollabergan Arslanbekovich

Ma'mun universiteti "Tarix" kafedrası v.b. dotsent.

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

E-mail: allaberganov_ollabergan@mail.ru

(UO'K) 94(575.171):364"1945/1991"

<https://orcid.org/0009-0002-8596-0926>**1945–1956-YILLARDA XORAZM VILOYATIDA PENSIYA TA'MINOTI
(YUTUQ, KAMCHILIK VA TAFOVUTLAR)**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19007627>

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif tomonidan 1945–1956-yillarda Xorazm viloyatida sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan pensiya va ijtimoiy ta'minot siyosatining holati tahlil qilinadi. Tadqiqotda urushdan keyingi davrda pensiya ta'minotining yagona mexanizmi mavjud bo'lmagani, ijtimoiy ta'minot organlari faoliyatidagi kamchiliklar hamda aholi orasida yuzaga kelgan norozilik holatlari yoritilgan. Shuningdek, viloyatning shahar va qishloq hududlarida pensiya ta'minotining notekis joriy etilgani, ayniqsa kolxozchilarning pensiya tizimidan chetda qolganligi arxiv ma'lumotlar asosida ochib berilgan. Maqolada Xorazm viloyatida pensiya ta'minoti tizimining shakllanish bosqichi hududiy va ijtimoiy tafovutlar kontekstida ilmiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston SSR, Xorazm viloyati, "Xorazm haqiqati" gazetasi, pensiya, ijtimoiy ta'minot, qishloq, kolxoz, shahar va qishloq tafovutlari, arxiv hujjatlari, ishchilar, xizmatchilar, kolxozchilar, mehnat staji, mehnat daftarchasi, shikoyat va arizalar

Аннотация. В данной статье анализируется состояние пенсионного обеспечения и политики социального обеспечения, проводимой советской властью в Хорезмской области в 1945–1956 годах. В исследовании освещаются отсутствие единого механизма пенсионного обеспечения в послевоенный период, недостатки в деятельности органов социального обеспечения, а также случаи недовольства среди населения. На основе архивных материалов раскрывается неравномерное внедрение пенсионного обеспечения в городских и сельских районах области, в особенности исключение колхозников из пенсионной системы. В статье в научном контексте рассматривается процесс формирования системы пенсионного обеспечения в Хорезмской области с учетом территориальных и социальных различий.

Ключевые слова: Узбекская ССР, Хорезмская область, газета «Хорезм ҳақиқати», пенсионное обеспечение, социальное обеспечение, сельская местность, колхозы, различия между городом и селом, архивные документы, рабочие, служащие, колхозники, трудовой стаж, трудовая книжка, жалобы и заявления

Abstract. This article analyzes the state of pension provision and social welfare policies implemented by the Soviet authorities in the Khorezm region during 1945–1956. The study highlights the absence of a unified mechanism for pension provision in the post-war period,

deficiencies in the activities of social welfare institutions, and cases of public dissatisfaction. It also reveals, based on archival sources, the uneven implementation of pension provision in urban and rural areas of the region, particularly the exclusion of collective farm workers (kolkhoz members) from the pension system. The article provides a scholarly analysis of the formation of the pension provision system in the Khorezm region within the context of territorial and social disparities.

Key words: Uzbek SSR, Khorezm region, “Khorezm Haqiqati” newspaper, pension, social security, rural areas, collective farms, urban - rural disparities, archival documents, workers, employees, collective farm workers, work experience, employment record book, complaints and applications

Kirish. Ma'lumki, Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Sovet Ittifoqida, jumladan O'zbekiston SSR hududida ijtimoiy ta'minot tizimini qayta shakllantirish va takomillashtirish masalasi dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Urush oqibatida nogiron bo'lib qolgan shaxslar, halok bo'lgan askarlarning oila a'zolari, mehnatga layoqatsiz fuqarolar sonining keskin ortishi davlatdan ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni talab etardi. Shunga qaramay, urushdan keyingi dastlabki o'n yillikda pensiya ta'minoti tizimi yetarlicha markazlashmagan, yagona huquqiy-me'yoriy mexanizmga ega bo'lmagan holda faoliyat yuritgan davr sifatida e'tirof etiladi.

Xususan, O'zbekiston SSR tarkibidagi Xorazm viloyatida 1945–1956-yillarda pensiya ta'minot tizimining amaliyotga joriy etilishi bir qator muammolar bilan kechdi. Viloyatning shahar va qishloq hududlarida ijtimoiy ta'minot siyosatining notekis amalga oshirilgani, pensiya tayinlashda hududiy va kasbiy tafovutlarning mavjudligi ijtimoiy adolatsizlik holatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Xususan, qishloq aholisi, jumladan, kolxozchilar pensiya tizimiga kech va cheklangan tarzda jalb etilib, ishchi va xizmatchilarga nisbatan ijtimoiy himoya darajasi ancha past bo'lgan.

Shu jihatdan, 1945–1956-yillarda Xorazm viloyatida pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi va rivojlanishini o'rganish nafaqat mintaqaviy ijtimoiy siyosat tarixini yoritish, balki shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi ijtimoiy tafovutlarning ildizlarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada Xorazm viloyatida urushdan keyingi dastlabki yillarda pensiya ta'minoti tizimining holati tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 1945–1956-yillarda Xorazm viloyatida pensiya ta'minoti (yutuq, kamchilik va tafovutlar) alohida mavzu sifatida nihoyatda kam o'rganilgan. Sovet davriga oid “O'zbekiston SSR tarixi”[1], mustaqillik yillarida yaratilgan asarlar va tadqiqotlarda, jumladan, M.Matniyozovning “Xorazm tarixi”[2], Q.Rajabov mas'ul muharrirligida chop etilgan “O'zbekiston SSR rahbariyatining ijtimoiy va siyosiy faoliyati (1945–1983-yillar)” [3], A. Mannopov, S. Mirzaahmedova muallifligida “75 mehru shafqat yillari” [4], nomli kitoblarda XX asrning 40–50-yillarida Xorazm viloyatida pensiya ta'minoti masalalari, ijtimoiy hayotidagi muammo va ziddiyatlar qisman bayon qilingan. Shuningdek, ushbu mavzuni o'rganishda Xorazm viloyat davlat arxivi 170-fond, “Xorazm haqiqati” gazetasi, “O'zbekiston sotsial ta'minoti” jurnali materiallari tadqiqotning manbaviy asosi bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi. 1945–1956-yillar oralig'ida Xorazm viloyati qishloqlarida pensiya va nafaqa ta'minotidagi muammo va ziddiyatlariga oid mavjud manbalarni tahlil qilishda, jumladan, ushbu maqolani asoslash jarayonida sinxron usul, qiyosiy tarixiy usul, tarkibiy tahlil kabi usullardan[5] foydalanildi.

Tahlil va natijalar. 1945–1991-yillarda Xorazm viloyatida sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy ta'minot siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biri pensiya ta'minoti tizimi hisoblangan. Pensiya tizimining shakllanishi, rivojlanishi va amaliyotga joriy etilish mexanizmlari o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turgan. Bu davrda pensiya ta'minoti sovet ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, uning Xorazm viloyat miqyosida tatbiq etilishi hududiy va ijtimoiy jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilmagan edi. Xususan, viloyatning shahar va qishloq hududlarida pensiya ta'minoti tizimi teng darajada joriy etilmagan bo'lib, bu holat shahar va qishloq aholisi o'rtasida ijtimoiy himoya masalasida sezilarli tafovutlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Shahar aholisi, asosan sanoat va davlat

muassasalarida mehnat qilganligi bois, pensiya ta'minotiga nisbatan erta va nisbatan to'liqroq jalb etilgan. Qishloq aholisi, ayniqsa kolxozchilar esa pensiya tizimiga qo'shilishi kechikkan va cheklangan xarakter kasb etgan.

Mazkur jarayonlar natijasida pensiya ta'minoti tizimida hududiy (shahar -qishloq), kasbiy (ishchilar, xizmatchilar va kolxozchilar) hamda ijtimoiy tafovutlar shakllangan. Shu bois, 1945–1991-yillar davomida Xorazm viloyatida shahar va qishloq hududlarida pensiya ta'minoti tizimining rivojlanishini uch asosiy davrga bo'lib tahlil qilish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu davrlashtirish pensiya ta'minoti tizimidagi o'zgarishlarni, uning huquqiy-me'yoriy asoslari va amaliy tatbiqini chuqurroq ochib berish imkonini yaratadi.

- Birinchi davr: 1945–1956-yillar
- Ikkinchi davr: 1956–1964-yillar
- Uchinchi davr: 1965–1991-yillar

Birinchi davr (1945-1956-yillar). Bu bosqichda pensiya ta'minoti asosan urush nogironlari, halok bo'lgan askarlarning oila a'zolari, mehnat nogironlari, boshqa turdagi pensionerlar (ko'chib kelganlarga rusiyazon nisbatan), shaxsiy pensionerlar kabi aholi qatlamini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga xizmat qilgan muhim davr sifatida e'tirof etiladi.

Shuningdek, 1945–1956-yillar oralig'ida sovet hokimiyatining ijtimoiy ta'minot siyosati mazmun-mohiyati bevosita Sovet Ittifoqi manfaatlariga xizmat qiladigan aholi qatlamlariga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Birgina 1946-yilning o'zida Xorazm viloyatining shahar va qishloq hududlarida jami 3781 nafar kishi 512985 so'mlik pensiya bilan ta'minlangan. Viloyat shaharlar, ya'ni Urganch (537 nafar pensioner) va Xiva (313 nafar pensioner) shaharlarida jami 850 nafar pensioner pensiya ta'minoti bilan ta'minlangan bo'lib, bu viloyatdagi umumiy pensionerlar sonining (3781) taxminan 22,5 % ga teng edi. Qishloq hududlari, ya'ni viloyatning 9 ta tumanida jami 2931 nafar pensioner qayd etilgan bo'lib, bu viloyatdagi jami pensionerlarning 77,5 % ni tashkil qilgan. Qishloqlar kesimida eng ko'p pensioner Xiva tumanida (504 nafar) va Shovot tumanida (465 nafar), eng kam pensioner esa Yangiariq tumanida (214 nafar) va Mang'it tumanida (228 nafar) istiqomat qilganlar. Bu davrda pensiya ta'minoti uchun ajratilgan mablag'lar quyidagicha taqsimlangan. Shaharlarga ajratilgan mablag', ya'ni Urganch shahriga 68477 ming so'm va Xiva shahriga 38500 ming so'm, jami 106977 ming so'mni tashkil etadi. Bu viloyat bo'yicha umumiy ajratilgan mablag'ning (512985 ming so'm) taxminan 20,8 % ga teng. Tumanlarga esa jami 406008 ming so'm yo'naltirilgan bo'lib, bu umumiy mablag'ning 79,2 % ni tashkil qilgan. Eng ko'p mablag' Shovot tumaniga (92000 ming so'm) va Xiva tumaniga (66030 ming so'm), eng kam mablag' esa Qo'shko'pir tumaniga (14544 ming so'm) ajratilgan[6]. Ammo bu hisob-kitoblar urushdan keyingi holat bo'yicha aholining ijtimoiy ta'minotga ya'ni pensiya ta'minotiga ehtiyojmand qismini to'laqonli ta'minlay olmadi. Chunki bu davrda ehtiyojmand aholi ro'yxati ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan to'liq shakllantirilmagan, beriladigan pensiyalar miqdori esa oilani to'liq iqtisodiy jihatdan ta'minlash uchun yetarli bo'lmagan. 1949-yil oxiri va 1950-yilning boshiga kelib aholi tomonidan ijtimoiy ta'minot masalasida bir qator ariza va shikoyatlar paydo bo'la boshladi. Jumladan, birgina Gurlan tumanidan pensiya masalasida, qurortlarga yuborish masalasida, protezlash masalasida jami 92 ta ariza va shikoyatlar kelib tushgan[7].

Nihoyat XX asrning 50-yillari boshiga kelib, Xorazm viloyatida pensiya bilan ta'minlanadigan aholi soni sezilarli darajada ko'paydi, birgina 1950-yil 15-sentabrda O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1651-soni "Sotsial ta'minot bo'limlari hisobida turuvchi pensiya va posobiya oluvchilarni qayta ro'yxatga olish to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi bunga sabab bo'ldi. Ro'yxatga olish jarayonlari 1951-yil yanvar va fevral oylarida amalga oshirildi[8].

1953-yilga kelib viloyat kesimida 810 nafar kishiga pensiya tayinlanib shundan 427 nafar (53%) viloyat shaharlariga ya'ni Urganch shahri (278 nafar) va Xiva shahri (149 nafar)ga to'g'ri kelib, 11 ta tuman qishloqlaridan esa 383 kishiga (47%) pensiya tayinlangan. Tumanlar kesimida eng ko'p pensiya tayinlanishi Gurlan tumani (95 nafar) va Xonqa tumanlariga (61 nafar) to'g'ri kelgan. Tumanlar kesimidagi eng past ko'rsatkich Yangibozor tumani (16 nafar) va Yangiariq tuman (19

nafar) larida qayd etilgan. Eng qiziqarli tomoni 1953-yilda Bog'ot tumanidan hech bir fuqaroga pensiya tayinlanmagan[9].

1954-yilga kelib viloyatda jami pensionerlar soni 10400 nafarni tashkil etgan. Bulardan Urush nogironlari 2488 nafar, xalok bo'lgan askarlarning oila a'zolari 5706 nafar, mehnat nogironlarining 1817 nafari, boshqa turdagi pensionerlar (ko'chib kelganlarga nisbatan) 316 nafar, shaxsiy pensionerlar 73 nafarni tashkil qilgan. Viloyatda pensiya tayinlash bo'yicha 26 ta komissiya faoliyat olib borgan. Ammo, 1954-yilda bu komissiyalar faoliyatida ko'plab kamchiliklar kuzatilib, asosan pensiyalarni ko'p to'lash yoki hujjatlarni soxtalashtirish ishlari viloyat tumanlari(qishloqlari)da ko'p uchrab turgan[10]. Achinarli jihati bu pensiya tayinlagan pensionerlar orasida qishloqlarda ter to'kib mehnat qilayotgan kolxozchilar juda ham kamchilikni tashkil qilar edi.

1956-yil boshida Xorazm viloyati ijtimoiy ta'minot organlari tomonidan uyma-uy yurib pensioner va nafaqaxo'rlarning xonadonlarini o'rganish ishlari boshlandi. O'rganish mobaynida 3939 nafar urushda halok bo'lgan askarlarning oilalari, 1287 nafar urush nogironlari, 972 nafar mehnat nogironlari, 164 nafar oddiy pensionerlar, jami 6475 ta pensionerga nafaqa to'lash bilan bog'liq xato va kamchiliklar, ortiqcha to'lash va kam to'lash holatlari aniqlanmagan. Viloyat shaharlarida ijtimoiy ta'minot organlari faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilganligi ma'lum bo'lgan. Ammo pensiya ta'minotiga ehtiyojmand aholiga yangidan pensiya tayinlash borasida Yangibozor, Shovot, Qo'shko'pir, Urganch tumanlari ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan ko'plab kamchilik va xatoliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlangan[11]. Pensiya tayinlash jarayonida yuzaga kelgan asosiy muammolardan biri aholi, ayniqsa qishloq aholisi orasida mehnat stajini tasdiqlovchi hujjatlarning yetishmasligi hamda ularning o'z vaqtida rasmiylashtirilmaganligidir. Ushbu holat mehnat faoliyatining hujjatlashtirilmaganligi bilan izohlanib, natijada qishloq aholisining sezilarli qismi pensiya ta'minoti tizimidan chetda qolgan. Oqibatda viloyatning shahar va qishloq hududlari o'rtasida pensiya ta'minoti darajasida sezilarli tafovutlar yuzaga kelgan.

Xulosa. 1945–1956-yillarda Xorazm viloyatida pensiya va ijtimoiy ta'minot tizimining shakllanishi murakkab va ziddiyatli jarayon bo'lib, u Sovet ijtimoiy ta'minot siyosatining hududiy darajadagi nomukammalligini yaqqol namoyon etdi. Urushdan keyingi dastlabki yillarda pensiya va nafaqa ta'minotining yagona huquqiy-me'yoriy mexanizmi mavjud bo'lmagani, ijtimoiy ta'minot organlari faoliyatidagi tashkiliy kamchiliklar hamda nazoratning sustligi tizim samaradorligining pasayishiga olib keldi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, viloyatda pensiya ta'minoti tizimi shahar va qishloq hududlarida notekis rivojlangan. Ishchilar va xizmatchilar pensiya ta'minotiga nisbatan erta va kengroq jalb etilgan bo'lsa, kolxozchilarning bu tizimdan chetda qolishi ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirgan. Qishloq aholisi orasida mehnat stajini tasdiqlovchi hujjatlar, mehnat daftarchalarining yetishmasligi, arxiv materiallaridan foydalanishdagi muammolar pensiya tayinlash jarayonini yanada murakkablashtirgan.

Shuningdek, ijtimoiy ta'minot organlari faoliyatida aniqlangan qonunbuzarliklar, pensiyalarni noto'g'ri tayinlash va to'lash holatlari aholining noroziligini kuchaytirib, shikoyat va arizalar sonining ortishiga sabab bo'lgan. Umuman olganda, 1945–1956-yillar Xorazm viloyatida pensiya ta'minoti tizimining dastlabki, muammolarga boy shakllanish bosqichi sifatida tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, keyingi davrlardagi islohotlar uchun muhim tajriba vazifasini bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон ССР тарихи. 4-жилд. –Тошкент: “Фан”, 1971. 217-218-б.
2. Матниёзов М. Хоразм тарихи.2-жилд. –Урганч, 1997. 173-б.
3. Ражабов Қ. Ўзбекистон ССР раҳбариятининг ижтимоий ва сиёсий фаолияти (1945 - 1983 йиллар). –Тошкент: “Фан”, 2020.
4. Маннопов А, Мирзаахмедова С. 75 меҳру шафқат йиллари. –Тошкент: “Адолат”, 1994. 5-6-б.

5. Шадманова С. Тарих тадқиқотларининг методологияси ва замонавий усуллари. – Тошкент: “Баркамол фойз медиа”, 2018. 70-б.
6. Xorazm viloyati davlat arxivi. 170 - fond, 1-ro‘yxat, 15-yig‘ma jild. 110-varaq.
7. Xorazm viloyati davlat arxivi. 170 - fond, 1-ro‘yxat, 40-yig‘ma jild. 23-varaq.
8. Xorazm viloyati davlat arxivi. 170 - fond, 1-ro‘yxat, 40-yig‘ma jild. 22-varaq.
9. Xorazm viloyati davlat arxivi. 170 - fond, 1-ro‘yxat, 47-yig‘ma jild. 7-varaq.
10. Xorazm viloyati davlat arxivi. 170 - fond, 1-ro‘yxat, 51-yig‘ma jild. 1-2-varaqlar.
11. Xorazm viloyati davlat arxivi. 170 - fond, 1-ro‘yxat, 82-yig‘ma jild. 5-varaq.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].